

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov

Farg'ona shahrini rivojlanish tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) 464

ADABIYOTSHUNOSLIK

N.M.Uluqov, N.Siddiqova

She'riy nutqda toponimlarning qo'llanishi va vazifalari..... 470

M.M.Rakhmatova

Amerika adabiyotida implikaturaning stilistik vositalar orqali ifodalanishi tahlili 475

Sh.B.Xo'jayeva

Alisher navoiyning "Nazm ul-javohir" asarida qofiya sathi va asar poetikasi o'rtasidagi bog'liqlik 479

R.R.Mamatov

Gerta Myuller asarlarining badiiy xususiyatlari 483

D.M.Uralova

Ulug'bek Hamdam hikoyalarida tasviriy ifoda va vositalarning o'rni 486

N.A.Saidova

K.Iyuisning "Narniya yilnomalari"da bolalar fentezi an'analari 489

K.U.Kubayev

Tarixiy haqiqat va badiiy talqin 493

U.Q.Muminova

"Mahbub ul-qulub" dagi turkiy so'zlarning hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati 497

M.Q.Narziqulov

Hozirgi davr tojikzabon ijodkorlarning g'azal janrinirivojlanishidagi roli 502

M.Abdullayeva

Shoir Hayratiy "Sayohatnoma" sining lingvokulturologik tahlili va tadqiqi 512

N.Y.Xolmatova

Badiiy publisistikaning muhim xususiyatlari 515

Y.I.Nishanov

Masal (hikoya) janrining asli xususiyatlari 520

Sh.K.Xashimova

Temur Po'latov ijodi haqidagi ba'zi mulohazalar 523

Q.Sh.Kaxarov, S.Mustafoyeva

O'zbek va nemis tillarida sen/siz murojaat shakllari 527

B.I.Dexqonov

Binokorlik terminlarinig o'quv jarayonidagi kommunikativ omillari 531

N.A.Rasulova

Lingvistikada funksional tahlilni tavsiflash 535

M.A.Xusenov, Sh.A.Zoitova

Chet tili o'rganish jarayonida ko'p uchraydigag xatoliklar (koreys tili misolida) 540

G.Xonkeldiyeva

Rus tilida padej kategoriyasi tavsifi va undagi muammolar 543

X.Abdurahmonov

O'zbek tilshunosligi tarixida mavhum otlarning o'rganilishi va ularning ahamiyati 546

N.Y.Ortiqova

O'zbek tilida zidlanuvchi vositalar poetikasi 550

M.M.Abdulxayeva

Tilshunoslikda sinonimiyaning o'rganilishi va uning turlariga oid olimlarning qarashlari 556

N.T.Mutodov

O'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan so'zlar va grammatik kotegoriyalar 560

Q.Sh.Kaxarov, M.Y.Abdurazzakova

Shaxslararo muloqotda noverbal muloqotning ahamiyati 567

M.V.Nasridinov

Buyruq nutqiy aktining lingvopragmatik xususiyatlari 570

G.Yusupova

Nemis va o'zbek tillari turg'un birikmalarida genderning ifodalanishi 574

ULUG'BEK HAMDAM HIKOYALARIDA TASVIRIY IFODA VA VOSITALARNING O'RNI

РОЛЬ ВИЗУАЛЬНОГО ВЫРАЖЕНИЯ И СРЕДСТВ В РАССКАЗАХ УЛУГБЕКА ХАМДАМА

THE ROLE OF VISUAL EXPRESSION AND TOOLS IN THE STORIES OF ULUGBEK HAMDAM

Uralova Dilnoza Murodilla qizi¹¹Uralova Dilnoza Murodilla qizi

– Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ulug'bek Hamdamning "Vatan haqida qo'shiq" hamda "Pillapoya" hikoyalari an'anaviy psixoanalitik yo'nalishdagi ramziylikka asoslangan hikoyalardan biridir. Har qanday badiiy asarning saviyasi, uning badiiyliqi, tasvir usullarining rang-barangligi undagi voqealar rivojining ketma-ketligi va ishonarliligi bilan belgilanadi. Ijodkorning "Vatan haqida qo'shiq", hikoyasida reallik bilan g'ayritabiiylikning hamda ertaknamo usullarning fanatistika bilan chatishib ketganligining guvohi bo'lamiz. Ijodkor hikoyalarda bugungi kunning dolzarb muamolarini falsafiy g'oyalar orqali ochib berishi e'tiborga loyiq. Yozuvchi hikoyalarning bayon uslubi, shakl va mazmun jihatidan uyg'unligi, an'anaviy va modernistik uslubning uyg'unligi bilan ajralib turadi. Ijodkorning "Vatan haqida qo'shiq", "Pillapoya" hikoyalarda tasvir vositalari, personajlarning xatti-harakatlarini tasvirlashda ko'chim turlarining sermahsulligi bilan ajralib turadi. "Vatan haqida qo'shiq" hikoyasida vatanga muhabbat, o'tmish ajdodlarimizning o'z yurtiga bo'lgan fidoyiliklari, ajdodlarimizning ko'rsatgan jasorati bosh qahramon obrazi orqali ochib beriladi. "Pillapoya" da esa moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi yorqin obrazlarda tasvirlab beriladi.

Аннотация

Рассказы Улугбека Хамдама "Песня о Родине" и "Пиллапоя" относятся к числу рассказов, основанных на символизме в традиционном психоаналитическом направлении. Уровень любого художественного произведения, его художественность, разнообразие приемов изображения определяются последовательностью и правдоподобностью развития событий в нем. В рассказе художника "Песня о Родине" мы наблюдаем смешение реальности и сверхъестественного, сказочных приемов с фанатизмом. Примечательно, что в рассказах художника актуальные проблемы современности он раскрывает через философские идеи. Рассказы автора отличает стиль повествования, гармония формы и содержания, сочетание традиционного и модернистского стилей. Рассказы художника «Песня о Родине» и «Пиллапоя» отличаются богатством типов образности, использованных для описания поведения героев. В повести "Песня о Родине" через образ главного героя раскрывается любовь к Родине, жертвенность наших предков своей стране, отвага наших предков. В "Пиллапое" в ярких образах описана гармония материальной и духовной жизни.

Abstract

Ulugbek Hamdam's stories "Song about the Motherland" and "Pillapoya" are among the stories based on symbolism in the traditional psychoanalytic direction. The level of any artistic work, its artistry, the variety of image methods are determined by the sequence and believability of the development of events in it. In the artist's story "Song about the Motherland", we witness the intermingling of reality and the supernatural, and fairy-tale methods with fanaticism. It is noteworthy that in the stories of the artist, he reveals the current problems of today through philosophical ideas. The author's stories are distinguished by the narrative style, harmony of form and content, and the combination of traditional and modernist style. The artist's stories "Song about the Motherland" and "Pillapoya" are distinguished by the richness of the types of imagery used to describe the behavior of the characters. In the story "Song about the Motherland", the love for the motherland, the sacrifices of our ancestors to their country, and the bravery of our ancestors are revealed through the image of the main character. In "Pillapoya" the harmony of material and spiritual life is described in bright images.

Kalit so'zlar: hikoya, ko'chim, talqin, uslub, tasvir, voqelik, xarakter, personaj, tasvir, tasviriy vosita.

Ключевые слова: сюжет, движение, интерпретация, стиль, образ, действительность, характер, персонаж, образ, изобразительные средства.

Key words: story, movement, interpretation, style, image, reality, character, character, image, pictorial means.

KIRISH

Ulug'bek Hamdamning "Vatan haqida qo'shiq" hikoyasi dastlab peyzaj tasviri bilan boshlanib, oqsoqol va bolaning xatti-harakatlari tashqi qiyofasini yozuvchi ko'chim turlari metaforik, metonimik ko'chim vositalari bilan ifodalab, tasvirda yanada orginallikka erishish maqsadida o'xshatish, istifora kabi tasviriy vositalardan unumli foydalanadi. Xususan, quyidagi tasvirga e'tibor bersak: "Bahorda atrofda ajib bir uyg'unishning yoqimli bo'ylari ufura boshlagan tarovatli bir

ADABIYOTSHUNOSLIK

ayyomda, cho'qqi soqoli, orasta kiyimi o'ziga chunon yarashgan, qo'l tegsa tilib yuborguday qirrador do'ppi kiyib olgan istarasi issiq oqsoqol yetti-sakkiz yoshlar chamasidagi g'ayrati tanasiga sig'may, qulay fursat topdi deguncha o'zini har yon urib ko'rayotgan chaqmoqday bolakay"[1,429]. Hikoyada bahor tasviri bilan bog'liq peyzaj tasviri va oqsoqol; bola ruhiyatidagi tasvirlar, nihoyatda, bir-biriga uyg'un va mutanosib tasvirlanganini ko'rishimiz mumkin. Hikoya bayonida ekstralingvistik romanlardan, xususan, sakkiz qirrali yulduz tasviridan so'ng, oqsoqol nabirasiga uzoq o'tmishdan hikoya aytib beradi. Hikoya avvalida yozuvchi urush nafasini ifodalashda tabiat hodisalari bilan bog'liq romanlardan unumli foydalanib, asar ta'sirchanligini yanada oshiradi: "Qor birdaniga bosdi. Hech kutilmaganda. Hali erta edi, ammo "Ortidan qor sovuq keldi". Hikoyada tasvirlangan erta yoqqan qor hamda qora sovuq timsollari yurtga kelayotgan qirg'inbarot urushning, iztirobning ifodalariidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Vatan haqida qo'shiq" "Safar" hikoyasining mantiqiy davomi bo'lib, temirchi obrazi orqali qattol dushman qamali tufayli halokat yoqasiga kelib qolgan yurt fuqarolari o'z orasidan chiqqan donishmand yurtboshi atrofida uyushib, bir tan, bir jon bo'lib, hayot – mamot jangida jonini qurbon qilgan temirchi yigit shijoatidan ibrat olib, kurashga otlangan xaloyiq oxir-oqibat tengsiz jangda g'olib chiqadi. Hikoyada tasvirlangan zog'ora non timsoli orqali xalqning naqadar urushdan sillasi qurigani, ocharchilik avj olgani tasvirlangani "Ochlikdan sillasi qurigan odamlar ana o'sha bir parcha yegulik ilinjida bir-birlarining yuz-u ko'zlariga oxirgi kuchlarini to'plab musht urishar, uqalanib yerga tushgan ushoqlarni terib, qor va muz parchalariga qo'shib og'ziga solish ilinjidagilar ham o'shancha topilardi". Hikoyada temirchining hukmdorga javobi ham uning Vatanga muhabbati, shijoati yaqqol ko'rsatib beradi: "Men zimmamga tushgan vazifani bajarayapman, qolganlar ham o'z vazifasini sidqidildan ado etganida edi, darvozalar ortida lak-lak dushman qo'shini kelib turmas edi!". Asarda ifodalangan qahraton qish timsoli orqali insonlar ruhiyatida cheksiz iztirob badiiy ifodalangan. Yurt himoyasi uchun otlangan temirchining yovga taslim bo'lib yashashdan ko'ra, dushman qilichidan o'lib ozod bo'lishni afzal bilishi hukmdorning qalbiga yorug'lik solish bilan bir qatorda hukmdorning atrofidagi g'alamis kimsalarning munosib yog'iyga munosib tarzda taslim bo'lish g'oyalari uni chuqur iztirobga soladi, temirchidan tashqari barcha xalq taslim bo'lish fikrida edi. Nazarimizda, jamiyatimizda Vatan taqdiri, uning kelajagiga beparvolik, loqaydlik illatlariga ham to'xtalib ketiladi. Go'yoki, ramziy ma'noda jamiyatda odam maqomini olgan-u, odamiylik maqomiga erisha olmagan insonlarning fojiviy hayoti ham muhokama etib ketiladi. Hikoya temirchi hikoya syujetini va uning muhim kompozitsion g'oyasini shakllantiruvchi aniq maqsadli, mantiqli obraz sanalib, yozuvchi bejizga unga Turon ismini bermagan. Jang boshlangan paytda Turon yog'iyga, o'zlaridan yuz kurra qo'shini ziyoda bo'lgan qo'shinga hujum qiladi, dastavval, yog'iyning o'ndan ziyod askari yer tishlab qoladi, ammo xuddi shu asnoda tarix o'z yo'lini o'zgartiradi. Chunki shu lahzada Turon elining yuragida uxlab yotgan sher qattiq na'ra tortganicha g'aflat uyqusidan bosh ko'taradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yozuvchi allegorik ramzdan, sher timsolidan foydalanib, Turon xalqining qalbidagi uyg'ongan yurakning, matonatning timsoli bo'lib kelgan, natijada temirchi hamda uyg'ongan yuraklar o'zlaridan yuz chandon qo'shinni yengib, yurtlarini dushmandan himoya qiladilar.

Hikoya so'ngida ijodkor ranglar vositasidan foydalanib, "Ufqda quyosh ol ranglarga chulg'anib botayotgan edi", deya o'tmishning qonli chiziqclarini ufq va qizil ranglaridan foydalanib "Ertangi kun yanada musaffo bo'ladi" deya yakunlaydi.

Ijodkorning "Pillapoya" hikoyasi odamlarning pishqirib oqayotgan daryoga tashbehi orqali boshlanadi. Hikoyaning ilk chizgilarida tasvirlangan daryo va pillapoya detallari biz uchun omonatga berilgan hayotning ramzlari ekanligini anglash qiyin emas. Nazarimizda, pillapoyalardagi qavatlar insonlarning hayot yo'llari, ya'ni bolalik, o'rta yoshlik, keksalik kabi. Mana shu hayot yo'llarini kimdir halol rizq bilan bosib o'tsa, yana kimdir esa uning aksi. Pillapoyadan yuqoriga ko'tarilganda qahramonimiz hammaning yuqoriga intilishi, bir pog'ona bo'lsa ham yuqoriga intilishini ko'radi: "Ammo ko'pchilik, baribir, yuqoriroq chiqishga orzumand edi". Hikoyada tasvirlangan oqim, nazarimizda, ma'naviy va moddiy hayotning ramzidir. Inson hayoti davomida ana shu ikki oqimni muvozanatda saqlay olsagina yetuklik darajasiga erishadi. Asarda: "Oqimning biri tepaga, biri esa pastga oqadi" deyilgan. Demak, moddiy hayotga mukkasidan ketish, dunyoga

berilish insonni faqat tubanlashtiradi, shuning uchun qahramonimiz: “Men pastdagi yalanglikka qadar enib bordim va negadir ilkis to‘xtadim. Chunki yerga tushgandan keyin ortga, tepaga qaytgim kelib qoldi” [2,486]. Ijodkor bu hikoya orqali insoniyatning ana shu moddiy va ma’naviy hayot oqimini tasvirlab, insonlar qaysi oqim sari ketayotganlarini izohlamochidek, go‘yo. Hikoyada tiriklik ma’nosi, “Izlaganing o‘zingdadir”ni, hayot mohiyatini bir necha ramziy timsollar orqali mohirona singdirib yubora olgan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inson yuqoriga intilgan sari, ya’ni yetuklik, ma’naviy hayotga intilgani sayin bu dunyoga inson nima uchun kelganini, uni vazifasi nima ekanligini anglay boshlaydi. Uning eng yuqori bosqichi, nazarimizda, bizda komillik, yetuklik deb atalsa kerak. Bu bosqichga erishish hammaga ham nasib qilavermaydi. Insonning qalbi poklangani sari pillapoyalardan ko‘tarilaveradi. Hikoyada tasvirlangan oqim moddiy va ma’naviy hayotning timsolidir. Pillapoyaning yuqori va pastki qismlari, nazarimizda, dunyoga kelgan har bir insonning ibtidosi va intihosining timsollaridir. Qahramonimiz pillapoyalardan ya’ni hayot yo‘llaridan bir-bir o‘tar ekan, yo‘lida zinaning bitta poyasiga o‘tirib olgan ayolga keladi. Ayol o‘z-o‘ziga: “Charchadim, qushga aylangim kelayapti, qushga!”- deya uzun-uzun nafas chiqarardi. Nazarimizda, ijodkorimiz ta’kidlaganidek, olamning mazmuni bizning o‘z ko‘nglimizdagi mazmun bilan qoimdir. Qahramonimiz duch kelgan ayolning tanasi qaridi, qush bo‘lishni xohlashi esa, nazarimizda uning orzu-umidlari qush misoli birin-ketin uchib ketmoqda, ya’ni bu jumlada qush insonning tanasi qarib, zinaning tubiga yaqinlashganida uni tark etadigan orzu-umidning ramzi sifatida ifodalangan. Ayolning yuzlaridagi charchoq esa ko‘nglining timsolidir. Bundan tashqari, hikoyada ustoz obrazi ham keltiriladi. Inson yetuklik bosqichlariga erishishni faqat ustoz yordamida amalga oshirishi shu obraz orqali anglashiladi, zero ustoz biz bosib o‘tmoqchi bo‘lgan ya’ni allaqachon bosib o‘tgan va baland-pastliklarini anglab yetgan bo‘ladi. Hikoyada qahramon: “Kim biladi deysiz, ehtimol, men ustozim chiqib ulgiran zinalarning yarmini ham bosolmasman, balki undan ikki hissa balandroq ko‘tarilarman”, - deya inson hayot yo‘llarida ma’naviy olamini boyitish, izlaganini o‘zidan topa olsagina pillapoyaning yuqorilaridan joy olishini tasviraydi. Qahramonimiz duch kelgan erkak obrazi orqali insonning bu hayotdagi vazifalarini, hayotga kelish mohiyatini teran anglab yetadi: “Sen qidirayotgan, senga kerak bo‘lgan narsa, aslida, seni manzil sari oshiqtirayotgan o‘sha holingdan o‘zgasi emas”, - deya har bir inson mohiyatni o‘zidan, aniqrog‘i o‘z qalbidan topishiga ishora qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hamdam U. Vatan haqida qo‘shiq –Toshkent. Akademyonashr.: 2019.
2. Rahimova L. Badiiy konflikt talqini// Yoshlik, 2014, 1-son.
3. Rahmat R. “Vatan haqida qo‘shiq”ni tinglab...// Kitob dunyosi gazetasi N16 (187).
4. Sodiq S. Isyonning hududi bormi... itoatning-chi?// O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2004-yil, 12-noyabr.
5. Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim?// O‘zbek tili va adabiyoti. - 2001.- №6. - S. 8-12.
6. Normatov U. Tafakkur yog‘dusi. –T., 2006..
7. Sabirdinov A. Ma’naviyat va ma’rifat chashmalari –Toshkent. Akademyonashr.: 2016.
8. Эшонқулов Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий лқини.ф.ф.д. дисс.автореферати, –Т., 2010.